O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 30 - iyun 235-8-121-Q/22 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahar hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmonida mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Termiz shahar hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Termiz shahar hokimligining Axborot xizmati (O.Xudoyqulov) mazkur qarorni hokimlikning tegishli ijtimoiy tarmoqlariga hamda rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimning birinchi

o‘rinbosari G‘.Elamanov zimmasiga yuklansin.

Termiz shahar hokimi **I.B.Xudayberdiyev**

Termiz shahar hokimining
2022 yil 30 iyundagi
235-8-121-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Termiz shahar hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Termiz shahar hokimining “Shahar hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2020 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2020-yil 10-fevraldagi Q-151 qarori.

2. Termiz shahar hokimining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining barqarorligi ta’minlash maqsadida Termiz shahar mahalliy budjetidan maqbullashtiriladigan harajaatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 24-apreldagi Q-415-son qarori.